

IDORAVIY HUQUQ IJODKORLIGI FAOLIYATINI REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI

Abduraxim Xasanov

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15450015>

Annotatsiya: Mazkur maqolada vazirlik va idoralar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish jarayonlarini tashkil etish hamda rejalashtirishning ahamiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari ichki ishlar organlari huquq ijodkorligi faoliyati misolida tahlil qilingan. Muallif normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari sifatli tayyorlanishini ta'minlash maqsadida norma ijodkorligini rejalashtiruvchi subyektlar doirasini, norma ijodkorligi faoliyatini bajarish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash zarurligi haqida xulosaga kelgan.

Kalit so'zlar: norma ijodkorligi, idoraviy huquq ijodkorligi, rejalashtirish, normativ-huquqiy hujjat, ichki ishlar organlari, "paket" tamoyili.

Norma ijodkorligi jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarning samaradorligini oshirish ularni vazirlik va idoralar tomonidan tayyorlash va qabul qilish jarayonlarini tashkil etish hamda rejalashtirish bilan bog'liq. Ushbu masalani Ichki ishlar vazirligi (keying o'rinlarda – IIV) huquq ijodkorligi faoliyati misolida ko'rib chiqamiz.

P.Solovevning fikricha, "rejalashtirish norma ijodkorligining dastlabki bosqichi, shuningdek, huquqiy barqarorlik va aniqlikni ta'minlovchi qonunchilikni rivojlantirish tamoyilidir"¹. A.Mironovning fikricha, ilmiy yondashuvga asoslangan rejalashtirish davlat va jamiyat taraqqiyoti prognozlari bo'yicha ularning ehtiyojlariga asoslanmagan qonunlar va qonunosti hujjatlarini qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi².

Normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish muammolari nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ularni yechish norma ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonlarining samaradorlik darajasini oshirish imkonini beradi. Bizningcha, normativ-huquqiy hujjatlarni yanada puxtarok tayyorlash va ularning sifatini yaxshilash uchun ularni tayyorlash, kelishish va qabul qilish tartibini yanada takomillashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, "normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashni rejalashtirish, qoida tariqasida, huquqiy jihatdan tartibga solish talab qilinadigan muammolarni aniqlash va tahlil qilish yakunlari bo'yicha tayyorlanadigan norma ijodkorligi ishining rejalari (dasturlari) doirasida amalga oshiriladi".

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ichki ishlar organlari xususan, vazirlik normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, qonunchilikni ichki ishlar organlarining vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha takomillashtirishga doir

¹ Соловев П. В. Перспективное планирование нормотворческой деятельности в Республике Беларусь // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D, Экономические и юридические науки. – 2012. С. – 113.

² Миронов А. Н. Миронов АН Принципы нормотворчества // Право, политика и современное общество: ценности, развитие и проблемы. – 2017. С. – 22.

takliflarni ishlab chiqadi. Hozirgi sharoitda bu faoliyatning bosh yo'nalishlaridan biri ichki ishlar organlari o'zlariga yuklatilgan funksiyalar va vazifalarni samarali bajarishini huquqiy jihatdan har tomonlama ta'minlashdir.

IIVning norma ijodkorligi faoliyati so'nggi yillarda rejali asosda amalga oshirilmoqda. IIVning muvofiq norma ijodkorligi ishini rejalashtirish masalalari vazirning buyruqlari bilan atroflicha tartibga solinadi. Ayni vaqtda, rejalashtirish chog'ida, shuningdek IIV hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida vazirlik vakolatlarini hisobga olish lozim. Masalan, Yo'l harakati qoidalari idoraviy normativ-huquqiy hujjat bilan emas balki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi. Keltirilgan misol shuni ko'rsatadiki, IIV idoraviy norma ijodkorligining chegarasi qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida yanada aniqroq belgilansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'nggi yillarda IIV muhim boshqaruv qarorlarini, boshqaruvning turli darajalari va bo'g'inlari tuzilishi va vakolatlarini, ularning o'zaro aloqasi hamda ularning ishini muvofiqlashtirishning tashkiliy shaklini yuridik jihatdan mustahkamlovchi, shuningdek ayrim texnik-iqtisodiy normalarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarni qabul qildi (O'zbekiston Respublikasi IIVning norma ijodkorligi faoliyati 2016 yilda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha hujjatlari qabul qilinganidan so'ng yanada faollashdi).

Ta'kidlash lozimki, "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida" Nizomda ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish, ular zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish masalasi nazarda tutilgan bo'lsada, IIV tizimida huquq ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish haqidagi ko'rsatma mavjud ham emas. Shu tufayli ham mazkur Nizomga tegishli bandni kiritish zarur deb hisoblaymiz.

Rejalashtirish boshqaruvning tarkibiy funksiyasi hisoblanadi. Usiz samarali, asoslangan huquq ijodkorligi faoliyatini yo'lga qo'yish mumkin emas. Ayni shu hol IIV norma ijodkorligini rejalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tahlil qilish zarurligini belgilaydi. Norma ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish zaruriyati uning boshqaruv qarori sifatidagi natijalarining xususiyati bilan ham belgilanadi.

P.Solovevning fikricha, normativ-huquqiy faoliyatni uzoq muddatli rejalashtirish ob'ekti masalasi muhim ahamiyatga ega. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni istiqbolli rejalashtirish qonunlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bunday dasturlar zarur hollarda boshqa qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlarini tayyorlashni ham o'z ichiga olishi lozim. Bunday yondashuv, birinchidan, loyihalarni tayyorlashning "paket" tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi, ikkinchidan, norma ijodkorligi subyektlarining uzoq muddatli, yo'naltirilgan fundamental hujjatlarni ishlab chiqish sifatini oshiradi³.

IIV normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini tayyorlashni rejalashtirishning dolzarbligi yana shu bilan belgilanadiki, hozirgi vaqtda ijtimoiy, shu jumladan yuridik prognoz qilish uchun jiddiy shart-sharoit va ilmiy asoslar yaratilgan⁴. Ichki ishlar organlarida boshqaruvning turli

³ Соловев П. В. Перспективное планирование нормотворческой деятельности в Республике Беларусь //Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D, Экономические и юридические науки. – 2012.

⁴ Қаранг: Тултеев И.Т. К вопросу о сущности законотворческого прогнозирования // Демократизация и права человека, 2002, №1. – 97-99-6.

darajalarida kriminologik prognoz qilish va tegishli tajribalar o'tkazish masalalariga nisbatan ilmiy yondashuv amalga oshirilmoqda.

Ko'rsatilgan omillar mavjud vositalardan samarali foydalanishga, qabul qilinayotgan qarorlarning ta'sirchanligini kuchaytirishga, binobarin, organlar va mansabdor shaxslar faoliyatida yuzaga keluvchi munosabatlarni yanada to'liqroq huquqiy tartibga solishga katta talablar qo'yadi.

Norma ijodkorligi faoliyatini rejalashtirish uning muayyan tartibi va tizimini belgilash, zarur normativ-huquqiy hujjatlar o'z vaqtida qabul qilinishini ta'minlash imkonini beradi. IIV huquq ijodkorligi ishining rejasini ishlab chiqish ichki ishlar organlari faoliyatining normativ-huquqiy hujjatlar bilan huquqiy tartibga solishni talab etuvchi muhim masalalari e'tibordan chetda qolmasligining garovi hisoblanadi. Bu masalalarni mazkur muammoga bag'ishlangan o'z monografik tadqiqotlari va asarlarida tadqiq etgan mualliflar normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tuzish ishini rejalashtirish zarur degan xulosaga keladilar⁵.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish yoki qonunchilik normalarini takomillashtirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashning joriy (yarim yillik va yillik) hamda istiqbolga (bir yildan ortiq muddatga) mo'ljallangan rejalarini (dasturlarini) ishlab chiqishi va tasdiqlashi mumkin.

Norma ijodkorligini rejalashtirish IIV tizimida huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun mas'uliyatni kuchaytiradi, normativ-huquqiy hujjatlarning loyiholari o'z vaqtida va sifatli tayyorlanishini ta'minlash imkonini beradi. Huquqiy normani shakllantirish bilan shug'ullanuvchi tuzilma va mansabdor shaxslarga loyihalarga tegishli materiallarni tayyorlash, huquqiy tartibga solish uchun rejalashtirilgan masalalar bo'yicha amaliyotni o'rganishni tashkil etish, normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini puxta tuzish va tahrir qilish, tegishli eksperimentlarni tashkil etish, loyihalarni tayyorlashning ketma-ketligiga rioya etish va ularni tasdiqlash uchun kiritish imkoniyati beriladi.

O'z-o'zidan ravshanki, norma ijodkorligi ishlarining hajmi kattaligi tufayli, IIV huquq ijodkorligi faoliyatini rejalashtirishni, uni tashkillashtirishni, norma ijodkorligi jarayoni va qoidalarini yanada takomillashtirish zarur. Normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashni rejalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida boshqa hujjatlar bilan o'zaro aloqalar tartibini belgilash, ularni bir vaqtda va parallel ishlab chiqish imkoniyatlarini aniqlash lozim. Huquq ijodkorligi ishlarining rejasi tuzilishi mumkin bo'lgan muddatning qisqaligi (1 yil) unga faqat asosiy qoidalar nazariy jihatdan ishlab chiqilgan va asoslangan normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashnigina kiritishni taqozo etadi.

Shunday qilib, idoraviy huquq ijodkorligini rejalashtirish idoraviy hujjatlar tizimining rivojlanish yo'nalishlarini tanlash borasidagi maqsadni belgilovchi faoliyatdir. Huquqiy tartibga solishni o'rganish va tahlil qilish, uning yagonaligini, normativ-huquqiy hujjatlarning loyiholari sifatli tayyorlanishini ta'minlash maqsadida IIVda norma ijodkorligini rejalashtiruvchi subyektlar doirasini, norma ijodkorligi faoliyatini bajarish bilan

⁵ Qarang: Odilqoriev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995; Islamov Z.M. Общество. Государство. Право. – T., 2001.

shug'ullanuvchi shaxslarning vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash zarur. Ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi IIVda bu faoliyatning mazmunini aniqlash lozim.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
3. Соловев П. В. Перспективное планирование нормотворческой деятельности в Республике Беларусь // Вестник Полоцкого государственного университета. Серия D, Экономические и юридические науки. – 2012. С. – 113.
4. Миронов А. Н. Миронов АН Принципы нормотворчества // Право, политика и современное общество: ценности, развитие и проблемы. – 2017. С. – 22.
5. Тултеев И.Т. К вопросу о сущности законотворческого прогнозирования // Демократизация и права человека, 2002, №1. – 97-99-б.
6. Odilqoriyev H.T. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. – T., 1995; Islamov Z.M. Obshchestvo. Gosudarstvo. Pravo. – T., 2001.